

2020– yilning yanvar– mart oylarida Farg'ona viloyatining qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020– yilning yanvar – mart oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 2 027,4 mlrd. so'mni yoki 2019– yilning mos davriga nisbatan 104,9 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 1 952,1 mlrd. so'mni (105,0 %), o'rmon xo'jaligi – 58,5 mlrd. so'mni (101,3 %), baliq xo'jaligi – 16,8 mlrd. so'mni (108,5 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarkibida Farg'ona viloyatining ulushi 8,0 % ni tashkil etdi.

**2 027,4**

**Farg'ona viloyati bo'yicha
qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so'm**

01**1 951,9**

**Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik
va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar**


02**58,5**

O'rmon xo'jaligi


03**16,8**

Baliq xo'jaligi

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o'sish sur'ati




Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi (%)



- O'rmon xo'jaligi
- Baliq xo'jaligi
- Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar
- Dehqonchilik
- Chorvachilik
- Ovchilik va qishloq xo'jaligi sohasidagi xizmatlar

2020–yilning yanvar – mart yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 91,7 % i – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar, 8,0 % i – o'rmon xo'jaligi, 0,3 % i – baliq xo'jaligi hissasiga to'g'ri keladi.


Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi



2020–yilning yanvar – mart oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Farg'ona (169 mlrd. so'm) va Oltiariq (159 mlrd. so'm) tumanlariga qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga So'x (42 mlrd. so'm), Marg'ilon shahri (49 mlrd. so'm) va Qoqon shahri (63 mlrd. so'm) keltirib o'tish mumkin.

Viloyat ko'rsatkichidan (104,9 %) yuqori o'sish sur'atlari Quvasoy shahri (116,4 %), Farg'ona (108,3 %) va Qo'shtepa (107,0 %) tumanlarida kuzatildi. Qo'qon shahri (98,2 %), Uchko'prik (100,5 %), So'x (101,2 %), Marg'ilon shahri (101,5 %), Bog'dod (102,1 %), Farg'ona shahri (103,4 %), va O'zbekiston (103,4 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2020– yilning yanvar – mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 1 946,1 mlrd. so'mni yoki 2019– yilning mos davriga nisbatan 105,0 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 155,2 mlrd. so'mni (103,3 %), chorvachilik mahsulotlari – 1 790,9 mlrd. so'mni (105,1 %) tashkil qildi.


Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi

8,0 %
Dehqonchilik
mahsulotlari




92,0 %
Chorvachilik
mahsulotlari

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi




Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 88,4 % i – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 7,9 % i – fermer xo'jaliklariga, 3,7 % i – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)



■ Dehqonchilik mahsulotlari ■ Chorvachilik mahsulotlari

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)




2020-yilning yanvar - mart oylari yakuniga ko'ra ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Farg'ona shahrida (14,5 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Marg'ilon shahrida (100,0 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Quvasoy shahrida (24,2 %) qayd etildi.

Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich So'x tumanida (0,7 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng kam ulushi Quvasoy shahrida (68,1 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi So'x tumanida (0,2 %) qayd etildi.


Dehqonchilik

2020–yilning yanvar – mart oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 155,2 mlrd. so'mni yoki 2019–yilning mos davriga nisbatan 103,3 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 8,0 % ni tashkil qildi.

Sabzavotlar



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020–yilning yanvar – mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 7 369 t. sabzavotlar (2019–yilning yanvar – martiga nisbatan 3,3 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 96,2 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



Farg'ona viloyati bo'yicha
sabzavotlar yetishtirish
hajmi, tonna




Chorvachilik



2020– yilning yanvar – mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 1 790,9 mlrd. soʻmni yoki 2019– yilning mos davriga nisbatan 105,1 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 92,0 % ni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish boʻyicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam koʻrsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining koʻpayishiga, ichki isteʼmol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan toʻldirishga imkon yaratdi.




2020– yilning yanvar – mart oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan tirik vaznda 34,8 ming t. goʻsht (2019– yilning yanvar – martiga nisbatan 5,5 % ga koʻp), 195,9 ming t. sut (4,3 % ga koʻp), 99,5 mln. dona tuxum (11,7 % ga koʻp), 94,0 t. jun (4,4 % ga koʻp) ishlab chiqarildi va 1 121,8 t. baliq (9,7 % ga koʻp) ovlandi.

Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020– yilning yanvar – mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 34,8 ming t. go'sht (2019– yilning yanvar – martiga nisbatan 5,5 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 88,7 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




Farg'ona viloyati bo'yicha go'sht (tirik vaznda) yetishtirish hajmi, tonna




Sut


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020–yilning yanvar – mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 195,9 ming t. sut (2019–yilning yanvar – martiga nisbatan 4,3 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 96,5 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Farg'ona viloyati bo'yicha ishlab chiqarilgan sut hajmi, tonna




Tuxum


Hajmi, mln. dona



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020–yilning yanvar – mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 99,5 mln. dona tuxum (2019–yilning yanvar – martiga nisbatan 11,7 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 59,5 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.




Farg'ona viloyati bo'yicha
olingan tuxum
hajmi, ming dona




Baliq


Hajmi, t.



O'sish sur'ati




Ishlab chiqarilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2020–yilning yanvar – mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1 121,8 t. (2019–yilning yanvar – martiga nisbatan 9,7 % ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 60,4 % i fermer xo'jaligi hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



Farg'ona viloyati bo'yicha
ovlangan baliq
hajmi, tonna



Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2020– yining 1– aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 5,6 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 93,5 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 6,5 % i fermer xo'jaliklariga, 93,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, otlar umumiy sonidan 15,3 % i fermer xo'jaliklariga, 83,5 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 11,0 % i fermer xo'jaliklariga, 63,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 26,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.


2020–yilning 1–aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 007,1 ming taga yetdi.

2019–yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 1,4 ming taga (0,1 %) ko‘paydi.

Yirik shoxli qoramollar



**Bosh soning
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020–yilning 1–aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 93,5 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzaitildi.



Farg'ona viloyati
bo'yicha yirik shoxli
qoramollarning umumiy
bosh soni, ming bosh




2020–yilning 1–aprel holatiga ko'ra, sigirlarning umumiy bosh soni 374,1 ming taga yetdi.


2019–yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni – 0,5 ming taga (0,1 %) ko'paydi.

Sigirlar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati




**Bosh soning
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020–yilning 1–aprel holatiga ko'ra, sigirlar soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, sigirlarning 94,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzaitildi.



Farg'ona viloyati
bo'yicha sigirlarning
umumiy bosh soni,
ming bosh




2020– yilning 1– aprel holatiga ko'ra, qo'y va echkilarning umumiy bosh soni 858,7 ming taga yetdi.


2019–yilning mos dasvri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda qo'y va echkilarning bosh soni –1,0 ming taga (0,1 %) ko'paydi.

Qo'y va echkilar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



**Bosh soning
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2020– yilning 1– aprel holatiga ko'ra, qo'y va echkilar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, qo'y va echkilarning 93,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzaitildi.



Farg'ona viloyati bo'yicha
qo'y va echkilarning
umumiy bosh soni,
ming bosh




2020– yilning 1– aprel holatiga ko'ra, otlarning umumiy bosh soni 9 110 taga yetdi.


2019– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda otlarning bosh soni – 71 taga (0,8 %) ko'paydi.

Otlar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



**Bosh soning
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020– yilning 1– aprel holatiga ko'ra, otlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, otlarning 83,5 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzaitildi.



Farg'ona viloyati
bo'yicha otlarning
umumiy bosh soni, bosh




2020– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 7934,5 ming taga yetdi.


2019– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalarning bosh soni – 205,2 ming taga (2,7 %) ko‘paydi.

Parrandalar


Soni, ming bosh



O‘sinh sur‘ati



**Bosh soning
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2020– yilning 1– aprel holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, parrandalarning 63,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



Farg'ona viloyati bo'yicha
parrandalarning
umumiy bosh soni,
ming bosh



Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

• 73-241-98-30